

**“AGAT CREDIT” AJ MMT AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH
TO‘G‘RISIDA
XABARNOMA**

«AGAT CREDIT» AJ MMT 2026 yil 17 iyun kuni jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida ma’lum qiladi.

KUN TARTIBI:

1. “TRASTBANK” XAB ABdan kredit mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq bitimlarni tuzish to‘g‘risida.

Jamiyatning joylashgan manzili (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Alpomish SGM, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 127-A uy. Pochta indeksi: 100077.

Jamiyatning elektron manzili: info@agatcredit.uz

Yig‘ilish o‘tkaziladigan joy: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Alpomish SGM, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 127-A uy.

Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish: yig‘ilish o‘tkaziladigan kuni va joyida soat 09:00 dan 10:00 gacha.

Yig‘ilish boshlanish vaqti: soat 10:00.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ishtirok etish va ovoz berish tartibi:

Aksiyador Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etish huquqiga ega.

Aksiyador istalgan vaqtda umumiy yig‘ilishdagi o‘z vakilini almashtirish yoki yig‘ilishda shaxsan ishtirok etish huquqiga ega.

Aksiyadorning Umumiy yig‘ilishdagi vakili notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Ovoz berish uchun berilgan ishonchnomada vakolat beruvchi va vakil to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma’lumotlari yoki ID-karta ma’lumotlari) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish «jamiyatning bir dona ovoz beruvchi aksiyasi — bir ovoz» prinsipi asosida amalga oshiriladi.

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.

Qo‘shimcha ma’lumot:

Aksiyadorlarni umumiy yig‘ilish haqida xabardor qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2026 yil 22 may holatiga shakllantiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishda ishtirok etishi uchun aksiyadorlar reyestri 2026 yil 11 iyun holatiga shakllantiriladi.

“O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq (bundan buyon matnda – Qonun), ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlar, agar ular umumiy aksiyadorlar yig‘ilishining kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha qaror qabul qilishda qarshi ovoz bergan yoki uzrli sabablarga ko‘ra ovoz berishda ishtirok etmagan bo‘lsa, Qonunning 41-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda jamiyatdan o‘zlariga tegishli aksiyalarning barchasini yoki bir qismini bozor qiymatida qaytarib sotib olishni talab qilish huquqiga ega”.

Aksiyadorlar yig‘ilish materiallari bilan ish kunlari soat 10:00 dan 16:00 gacha quyidagi manzilda tanishishlari mumkin: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Alpomish SGM, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 127-A uy. Ma’lumot uchun telefon: (90) 982-44-48.